# NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING UMUMIY TASNIFI

Namangan davlat universiteti
yuridik fakultet o'qituvchisi
**Qodiraliyeva.I** va **Muxammadjonov Rahmatillo**
yurisprudensiya 3- bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar va nodavlat oliy ta'lim muassasalariБ nodavlat oliy ta'lim muassasalarining hozirgi zamon talablari asosida davlat oliy ta'lim muassasalari bilan raqobatdoshligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassalariga moliyaviy mustaqillik berish istiqbollari tahlil qilingan

**Kalit so'zlar**: Nodavlat ta'lim muassasi, maktab, pedagog, islohot, International, Kasbiy kompetentlik, muassasa, ta'lim tizimi.

**Kirish.** Dunyo tajribasida ta'lim sohasiga sarflangan investitsiya hech qachon kasodga uchramasligi ko'p karra isbotlangan. Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim, jumladan, oliy ta'lim sohasini isloh qilish jadal bosqichga kirdi. Buning samarasini hozirdanoq ko'ra boshladik: bu yil oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun hujjat topshirgan abituriyentlarning 40 foizi o'qishga qabul qilindi. Bu rekord natija hisoblanadi. Yaqin yillarda bu ko'rsatkichni 60 foizga chiqarish ko'zda tutilgan. Bunda talay omillarning ahamiyati bo'ldi, albatta. Shulardan eng muhimi – xususiy oliy ta'limning joriy etilgani.

Ta'kidlash joizki, NTM xuddi davlat maktablari kabi davlat ta'lim standartlari (davlat talablari), o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq davlat ta'lim normalari shaklida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, samaradorlikni oshirish uchun xalqaro eng yaxshi amaliyotlardan foydalanish mumkin. Bunday maktabni qanday topish mumkin? Agar muassasa nomida «International» so'zi ishlatilsa, unda siz bu yerda chet ellik mutaxassislar ishlashi yoki xalqaro ta'lim tajribasi qo'llanilishiga amin bo'lishingiz mumkin. Ushbu shakl, albatta, ta'lim oluvchilar uchun plyus bo'ladi. Ammo, bu

NTMda ta'lim davlat maktablariga qaraganda yaxshiroq boʻlishini kafolatlamaydi. Shuni tushunish kerakki, ta'limda muassasa shakli emas, balki pedagog katta rol oʻynaydi.

Vatanimiz ta`limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta'limning qadr-qimmati, obro' va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo'lmogi zarur. Ta'limdagi muvvaffaqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo'ladi. Dadil harakat, shijoat tufaylidir. Shijoatni esa insonga, o'zbek milliy pedagogikasining mumtoz namoyondasi Abdulla Avloniy takidlaganlaridek maktab ilm- ma'rifat baxsh eta oladi.

Oliy ta'lim muassasalari, davlat tomonidan boshqarilgan va rivojlantirilgan muhim o'quv institutlardir. Bu muassasalar, oliy ma'lumotlarni ta'lim berish va tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga mo'ljallangan.

Oliy ta'lim muassasalari, jamoatning bilim va texnologiyalardagi ilm-hunarlarini oshirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, texnologik innovatsiyalar va ilmiy yutuqlarni olib borishga intilish imkoniyatini beradi. Ular yoshlarni ma'sul va mutaxassislikka qaratish, ijodiy va intellektual potentsiallarni rivojlantirish, iqtisodiy, ijmoliy va siyosiy sohalarda xizmat qiluvchi kadrlarni etishtirishga ahamiyat bergan organizatsiyalardir. Oliy ta'lim muassasalari kasbiy tayyorgarlikni oshirishda, rivojlanishga yo'l qo'ymoqda va iqtisodiyotda to'g'ri yo'nalishga yo'l qo'yishda muhim ahamiyatga ega. Ular mustaqil davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, yuqori sifatli ta'lim tizimini ta'minlash, akademik kadrni rivojlantirish va hamkorlik bilan yiliga ko'proq yutuqlar qilishga intilishadi.

Ta'kidlash joizki, Nodavlat oliy ta'lim muassasasi xuddi davlat ta'lim muassasasi kabi davlat ta'lim standartlari (davlat talablari), oʻquv rejalari va oʻquv dasturlariga

muvofiq davlat ta'lim normalari shaklida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, samaradorlikni oshirish uchun xalqaro eng yaxshi amaliyotlardan foydalanish mumkin. Bunday maktabni qanday topish mumkin? Agar muassasa nomida «International» so‘zi ishlatilsa, unda siz bu erda chet ellik mutaxassislar ishlashi yoki xalqaro ta'lim tajribasi qo‘llanilishiga amin bo‘lishingiz mumkin. Ushbu shakl, albatta, ta'lim oluvchilar uchun plus bo‘ladi. Ammo, bu NOTMda ta'lim davlat maktablariga qaraganda yaxshiroq bo‘lishini kafolatlamaydi. Shuni tushunish kerakki, ta'limda muassasa shakli emas, balki pedagog katta ro’l o‘ynaydi.

Bugungi kunda nodavlat ta'lim muassasalari o'z faoliyatiga boshqaruv funktsiyalarini joriy etib, bozor munosabatlarining to'liq ishtirokchilari hisoblanadi. Boshqarish funksiyalari tarkibida tizimli tahlil va qaror qabul qilish alohida o'rin tutadi. Ta'lim muassasasi faoliyatini tahlil qilish quyidagilar uchun zarur: uning samarali faoliyati, faoliyat va rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va qarama-qarshiliklarni aniqlash, ularning paydo bo'lish sabablari, haqiqiy imkoniyatlarni aniqlash. Bugungi ishbilarmonlik dunyosida samarali raqobatlashish uchun ta'lim muassasalari doimiy ravishda ta'lim sohasi, mehnat bozori va ta'lim xizmatlari, raqobat va boshqa omillar to'g'risida juda ko'p ma'lumotlarni to'plashlari va tahlil qilishlari kerak..

Nodavlat oliy ta’lim muassasalari ham xalq orasida katta obro‘ga ega. Ayniqsa, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Yeodju texnika instituti, Inha, Akfa universitetlariga ko‘pchilik o‘quvchilar ikkinchi imkon emas, orzu sifatida qarashadi. Nodavlat oliy ta’lim muassasalaridagi sharoitlar va ta’lim tizimi davlatnikidan farqlanadi. Ko‘pchilik yoshlarga ularning erkin dasturi ma’qul bo‘ladi. Lekin tan olish kerakki, barcha muassasalarda ham o‘qitish jarayoni a’lo darajada yo‘lga qo‘yilmagan, ayniqsa, yangi ochilgan OTMlarda.

Nodavlat oliy ta'lim muassasalari o'zaro hamkorlik bilan kadrlarni tayyorlash, fan va uslubiyatni oshirish, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar olib borish, ma'naviy-ma'rifatli, intellektual va ijodkor jamiyatni shakllantirish uchun faoliyat yuritadigan o'quv-tarbiyaviy muassasalardir. Ular talabalarga oliy malakali mutaxassislar,

muhandislar, texnologlar, tabiyyotshunoslar va boshqalar bo'lib chiqishlari uchun ilmiy, amaliy va madaniy asoslar asosida tayyorlaydigan o'quv-uslubiy muassasalardir. Bu muassasalar ilmiy etuk, tadqiqotlar, innovatsiyalar va yangiliklar doirasini kengaytirish, o'quv-uslubiy amaliyotni yanada rivojlantirish, kasbiy bilimlarni oshirish va yangi malakani shakllantirish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.

Nodavlat oliy ta'lim muassasalari, boshqaruvchi davlat tarkibidagi tashkilotlar bo'lib, oliy o'quv muassasalariga misol qilinadi. Ular birlamchi vazifalari ta'limga qiziqishni oshirish, oliy malaka va ilmiy bilimni etishtirish, teorik bilimlarni amaliyotga joriy etish, istiqbollarni tahlil qilib, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va iqtisodiy, ijmoliy va siyosiy sohalarni rivojlantirishdir.

Nodavlat oliy ta'lim muassasalari, yuqori darajada oliy ma'lumotlarni talab qiladigan, bakalavr, magistr va doktorantura darajalaridagi o'quvchilarni qabul qiladi. Bu muassasalarning o'quv dasturlari ilmiylik asosida tuzilgan bo'lib, talabalarni istiqbolli mutaxassislar sifatida etishtirish maqsadini kuzatadi.

Oliy ta'lim muassasalari, ilmiy faoliyat yuritish, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, yangi bilimlarni yaratish, oliy ma'lumotlarning tarqatilishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ular o'quvchilarga ilmiy bilimlar, kasbiy ko'nikmalarni oshirish, ijodiy va intellektual potentsiallarni rivojlantirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, nodavlat oliy ta'lim muassasalari, milliy va xalqaro maqbuliyatga ega bo'lib, iqtisodiyotni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ular mamlakatning savdo-sanoat potensialini oshirish, texnologik innovatsiyalarni amalga  oshirishga o'tishmoqda.

Nodavlat oliy ta’limini tubdan rivojlantirish hamda ta’lim sifatini taminlash maqsadida shoshma shosharlik va ko‘r ko‘ronalikka yo‘l qo‘ymaslik lozim. Darhaqiqat son jihatdan ustunlikka erishish sifat unutilishi kerak degani emas. Bunga misol tariqasida “VALLEY INNOVATIVE UNIVERSITY” MCHJga nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati uchun berilgan litsenziyasi bekor qilindi. Farg‘ona tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 17-iyuldagi hal qiluv qarori bilan “VALLEYINNOVATIVE UNIVERSITY” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga 2022-

yil 13-dekabrda nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati uchun berilgan 053546-sonli litsenziya bekor qilindi. Bo‘lib o‘tgan sud majlisi muhokamalarida oliy ta’lim tashkiloti faoliyatida aniqlangan qo‘pol qoidabuzarliklar sudga taqdim etilgan asosli hujjatlar bilan o‘z isbotini topdi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning ta’lim va fan darajasiga bog‘liq. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham ko’proq talablar qo‘ymoqda. Zamonaviy xodimning ma’lum bir ish faoliyatiga moslik darajasini baholash borasidagi talablar doimiy ravishda o’zgarib va kuchayib bormoqda. Bunda “Kasbiy kompetentlik” sifatida uning nafaqat kasbiy bilimlari, malaka va ko’nikmalari, balki mantiqiy fikrlashi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, guruhda ishlash va hamkorlik qilishga bo’lgan qobiliyati, ma’lumotliligi va boshqa sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Nodavlat oliy ta’lim muassasalarining tizimdagi kamchiliklarnianiqlash va ularni keyinchalik yo'q qilish, shuningdek, ularning rivojlanish potentsiali va yo'llarini aniqlash uchun ba'zi omillarning boshqalarga ta'siri mezonlarini belgilashga imkon beradi. Bularning barchasi ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Elyor, Alimov. "Ta’lim turizmining mohiyati." *World of Science* 6.4 (2023): 540-544.

2. Вахабов А., Хўжаханов М. “Олий таълим сифати” Илмий категорияси ва ижтимоий-иқтисодий моҳияти //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – Т. 24. – №. 2. – С. 335-341.

3. Бокиев Ж. Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган шахсларнинг олий таълим олиш ҳуқуқини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий масалалари //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. S/5.

4. Бородкина, Татьяна Александровна. "Педагогические условия развития негосударственных вузов." *Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки* 8 (2008): 47-51.